

MUSTAQILLIK YILLARIDA BAXSHICHILIK SAN'ATI RIVOJIGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

G'ulomova Muslimaxon Ahmdillo qizi

Farg'ona viloyati, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali, Professional ta'lif nazariyasi va metodikasi

(mutaxassisliklar bo'yicha) 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada baxshichilik san'ati, baxshichilik tarixi, baxshichilik rivojlanishi va hozirgi kundagi ahamiyati haqida.

Tayanch so'zlar: Baxshichilik tarixi, YUNESKO, baxshichilik va dostonchilik san'atining tarixi, baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish.

Аннотация Эта статья об искусстве дарения, истории дарения, развитии дарения и его значении сегодня.

Ключевые слова: История бахшики, ЮНЕСКО, история бахшики и эпического искусства, развитие бахшики и эпического искусства.

Annotation. This article is about the art of giving, the history of giving, the development of giving and its significance today.

Key words: History of Bakhshiki, UNESCO, history of Bakhshiki and epic art, development of Bakhshiki and epic art.

Xalqimizning milliy o'zligini, qadimiy tarixi va tilini, uning hayot tarzi, an'ana va urf-odatlarini o'zida mujassam etadigan, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi sifatida tan olingen baxshichilik san'ati atoqli baxshi-shoirlarimiz, folklorshunos olimlarimizning fidoyi mehnati, ijodiyl tafakkuri bilan asrlardan asrlarga o'tib kelmoqda.

Xalqimizning yuksak badiiy dahosi bilan yaratilgan ushbu noyob san'atni asrab-avaylash va rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yurtimizda "Alpomish" dostonining ming yilligi keng nishonlangani, Termiz shahrida bu ulug' badiiy obida sharafiga, Samarqand shahrida atoqli baxshilarimiz xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmualari bunyod etilgani, davlatimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi" faxriy unvoni ta'sis qilinganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda Termiz shahrida baxshichilik maktabi, respublikamizdag bolalar musiqa va san'at maktablarida folklor sinflari faoliyat ko'rsatmoqda. Yurtimizda ko'p tomlik "Qoraqalpoq folklori" to'plamlari chop etildi, 100 tomlik "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" majmuasi nashr etilmoqda. Baxshi-

shoirlar tomonidan ijro etilayotgan asarlarni yozib olish, ularni ilmiy o'rganish ishlari davom etmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda xalqimizning yuksak badiiy ijodiyoti asosida yaratilgan nomoddiy madaniy meros durdonalarini asrab-avaylash, xalq og'zaki ijodining qadimiy an'analarini tiklash va milliy qadriyatlarni izchil rivojlantirish, ijodiy uyushmalar hamkorligida baxshi va dostonchilar ijodining eng yaxshi namunalarini targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Ayni paytda baxshichilik va dostonchilik san'atining tarixi, baxshilar va dostonchilar ijodini mukammal o'rganish, bu borada fundamental tadqiqotlar olib borish, xalq og'zaki ijodi yodgorliklarini to'plash, nashr etish yuzasidan yana ko'pgina chora-tadbirlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish, baxshi-shoirlar ijodining o'zbek madaniyati va san'atidagi o'rni hamda ahamiyatini yanada oshirish, shuningdek, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, baxshichilik va dostonchilik san'atini ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i orqali mamlakatimizda hamda chet ellarda targ'ib etish, ustoz baxshilar va dostonchilar, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli yosh baxshilar hamda doston ijrochilari faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, yosh avlodni mardlik, halollik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga va ajdodlar merosiga yuksak sadoqat ruhiida tarbiyalash maqsadida 2018 yil 26 aprel Ozbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamisining "Baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish" to'g'risida qaror qabul qildi.

Parijda YuNESKO Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Hukumatlararo qo'mitasining XVI sessiyasi bo'lib o'tdi. Uning ishida qatnashgan O'zbekiston delegatsiyasining «Baxshichilik san'ati» insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga kiritish haqidagi taklifi ham ovozga qo'yildi va yakdillik bilan tasdiqlandi.

YuNESKO ro'yxatiga kiritilishining barcha mezonlariga mos kelgan bu noyob nomoddiy madaniy meros yer yuzida kamdan-kam xalqlarda mavjud bo'lib, necha ming yillar osha bizgacha bezavol saqlanib, yetib kelgan. YuNESKOning bu qarori Baxshichilik san'atini jahon miyisosida yuksak e'tirofi bo'ldi.

O'zbekistonning YuNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiyasi tomonidan tayyorlanib, 2020-yilda YuNESKOga taqdim etilgan bu azaliy qadriyatimiz endilikda xalqaro hamjamiyat e'tiborida rivojlanadi.

Baxshichilik – ikki buyuk daryo, Jayxun va Sayxun oralig'idagi sivilizatsiyalarini yaratish qudratiga ega bo'lgan ulug' ajdodlarimizdan meros.

Sobiq sho'rolar davri mafkurasi xuddi Navro'z, muqaddas dinimizga bo'lganidek, baxshichilik san'atida ham ko'p tazyqlarni boshidan kechirdi. Turli katta-kichik yig'ilishlarida «baxshi – eto baqiroq chol» degan tamg'alar yopishtirildi.

Hayotiy misol. Mustaqillik arafasida Jarqo'rg'onga O'zKP Markaziy Qo'mitasining kotibi (hali u kishi hayot, nomini keltirmayman) kelib, Navro'z bayramini ta'qiqlash bo'yicha katta yig'ilish o'tkazdi. «Bilib qo'ylaring, O'zbekistonda Navro'z bayrami va baxshilar hech qachon bo'lmaydi. Shu sababli hamma mas'ullarning o'zları ham, yaqinlari, xodimlari ham hech qachon Navro'z bayramida qatnashmasin. Kimdaki kim bu ko'rsatmani buzsa, unga nisbatan qattiq chora ko'riliishi haqida ogohlantirilsin», degan gaplari hozirgacha yodimda.

Mustaqillik yillarda milliy o'zligimiz qayta tiklanib, so'nggi yillarda esa bu madaniy va moddiy merosimiz butun dunyoga keng tarannum etilmoqda.

Jumladan, Navro'z millatlararo qadriyat sifatida YuNESKO ro'yxatida ham obro' topdi. O'zbekiston tashabbusi bilan YuNESKO shafe'ligida, baxshichilik sanati tufayli bizlarga yetib kelgan Alpomish dostonining 1000 yilligi jahonda keng nishonlandi.

O'zbekistonning XIX-XX asrlar madaniyati tarixida ko'plab baxshi shoirlar nomlari qayd etilib, ularning ko'plariga haykallar o'rnatilgan, kuylagan doston, epos, termalari tasma, plastinka va to'plamlarda nashr etilgan.

Jahondagi birgina davlatda prezident farmoni bilan «O'zbekiston xalq baxshisi» degan davlat mukofoti – faxriy unvon beriladi. U ham bo'lsa bizning yurtimizda!

Baxshi deganda ko'z o'ngimizda soch-soqollari oqargan, biyron so'zlovchi va hozirjavob, donishmand nuroniyning obrazi namoyon bo'ladi. Yurtimizda berilgan e'tibor tufayli hozir baxshichilik san'ati festival va tanlovlardan tobora yosh yigitlar va hattoki qizlar ham do'mbira chertib, doston va termalarni baralla kuylashmoqda. Yurtimizda baxshichilik o'z an'ana, maktab va istiqboliga ega san'atga aylandi. Ayniqsa, keyingi yillarda milliylikni teran anglash va yoshlarda milliy qadriyatlar bilan faxrlanish tuyg'ularini mustahkamlash, vatanimiz hududi insoniyat madaniyatining ilk beshiklaridan bo'lganligi dalillarini jahon hamjamiyatiga yetkazish g'oyasi bevosita davlat rahbari tomonidan ilgari surilayotganligi tahsinga sazovor.

Pandemiya butun jahonni, jumladan, qudratli davlatlarni ham sarosimaga solib qo'ygan bir paytda, ma'naviy boylik – baxshichilik san'atini rivojlantirish g'oyalarini ilgari surilishi xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Ularning fikricha, O'zbekiston rahbariyati bugungi kun

tashvishlari bilan bir qatorda uzoq kelajak taqdiri va insoniyatning ma'naviy dunyosi haqida qayg'urayotganligi yaqqol ko'rinish turganligini ta'kidlashdi.

2018-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev qarori bilan Nukus va Termiz shaharlarida Xalqaro baxshichilik festivallari yuqori saviyada o'tkazildi va O'zbekiston hayotida katta madaniy voqealardan biri bo'ldi.

Baxshichilik san'atini jahon nomoddiy madaniy merosning Reprezentativ ro'yxatiga kiritilishi xalqaro hamjamiyat uchun muhim ahamiyatga ega voqealari bo'ldi. O'z navbatida bu qaror baxshichilikni asrab-avaylash va rivojlantirishda bundan buyon O'zbekiston bilan YUNESKO qo'lini qo'lga berib harakat qilishi kerak bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tarixiy qaror yurtimizda noyob madaniy merosimizni o'rganish, uning bebaho an'analarini targ'ib qilish va rivojlantirishga keng sharoit yaratish barobarida, ushbu bitmas-tuganmas, noyob va mangu madaniy meros namunalari avlodlardan-avlodlarga o'tib, yanada sayqal topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa sifatida ta'kid joizki, Prezidentimiz va davlatimiz tomonidan baxshichilik san'atiga bunday ulkan mas'uliyatdan kelib chiqib bu noyob merosimiz amaliyotida qo'llanilgan "Ustoz — shogird" an'analarini qayta tiklash hamda rivojlantirish, baxshi-shoirlar, folklorshunos olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarning ijodiy-ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari, boshqa ta'lim muassasalari qoshida baxshichilik san'ati to'garaklarini tashkil etish kabi muhim vazifalarni amalda bajarish, baxshi-shoirlar ijodiga keng yo'l ochib berish, ommaviy bayramlar va madaniy tadbirdarda ularning faol ishtirokini ta'minlash, baxshichilik san'atining sara namunalarini to'plash va fondini yaratish, ularning audio-video variantlarini ko'paytirish, baxshichilik san'ati yo'nalishida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, bu borada o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish, jumladan, turli xalqaro anjumanlar, tanlovlar, konsertlar, mahorat darslarini tashkil etish kabilalar musiqa madaniyati tizimida faoliyat olib borayotgan har bir mutaxassisning sharafli burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Prezidentning 10.04.2021 yildagi «ll Xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga tayyorgarlik ko'rish va baxshichilik san'atini rivojlantirish uchun gulay shartsharoitlar yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5070-son qarori.
2. Matyoqubov B. "Xorazm doston ijrochiliginig zarxat sahifalari" - Xorazm. Urganch nashriyoti. - 1999.

3. Jabborov I. "Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani"- Toshkent. O'zbekiston nashriyoti.- 2012.
4. Matyoqubov B. "Doston navolari" - Toshkent. "BUILDING PRINT" nashriyoti. -2009.
5. Sarimsoqov B. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" - Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. - 1990.
6. Turabova, S. K., & Juraeva, V. F. (2019). THE SOCIO-POLITICAL SIGNIFICANCE OF THE PHENOMENON SCIENTIFIC DISCUSSION IN THE DEVELOPMENT OF THINKING OF THE PEOPLES OF THE EAST. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(8), 168-174.